ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZARURIY AHAMIYATI

A.Sh.Shodmonova
Renessans ta’lim universiteti
Pedagogika fakulteti v.b.dots.

Mirjamolova Mu’tabar Dilshodovna
Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi 3-24 guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqoladi boshlang’ich sinf o’quvchilarida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullar va ularning zarurligi haqida hamda zamonaviy o’qitish usullaridan foydalanish haiqda ma’lumot berilgan.
Kalit so’zlar: Boshlang’ich, innovatsiya, texnologiya, AKT, LINGVA.

Abstract: This article provides information about the methods and necessity of using modern innovative technologies among primary school students, as well as the use of modern teaching methods.
Keywords: Elementary, innovation, technology, ICT, LANGUAGE

Hozirgi kunda tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan zamonaviy axborot asrida ta’lim tizimining har bir bosqichi, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayoni zamonaviy yondashuv va texnologiyalarni talab qilmoqda. Boshlang‘ich sinf – bu bolalarda bilimga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, ijodiy salohiyatni shakllantirishning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Shu bois bu bosqichda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘ta muhimdir. Chunki hozirgi kunda juda ham texnologiyalar rivojlanib bormoqda.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalar nima?

Innovatsion texnologiyalar – bu an’anaviy dars o‘tish usullariga nisbatan yangicha, interaktiv, ilg‘or yondashuvlarni o‘z ichiga olgan metod va vositalar majmuasidir. Bularga quyidagilar kiradi:

AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari): kompyuter, planshet, interaktiv doska, proyektor.

Multimedia vositalari: audio, video, animatsiyalar, elektron darsliklar.

Ta’limiy onlayn platformalar: Zoom, Google Classroom, EduPage, LearningApps va boshqalar.

O‘yin texnologiyalari: ta’limiy o‘yinlar, testlar, viktorinalar.

STEM yondashuvi: fan, texnologiya, muhandislik va matematikani integratsiyalashgan o‘qitish.

O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich ta’limda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va o‘qituvchilarning bu boradagi faoliyatini baholash masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari va qabul qilingan qonunlar ushbu sohada sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev innovatsiyalarni jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko‘rib, xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini shakllantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ularning tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi qonunda berildi. 2024-yil 24-iyulda qabul qilingan ushbu qonun innovatsion faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Qonunda innovatsion faoliyatning asosiy tushunchalari, tamoyillari va yo‘nalishlari belgilangan. Ushbu hujjat ta’lim tizimida, jumladan, boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun huquqiy asos yaratadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari va qabul qilingan qonunlar O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Bu esa o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini baholash va rag‘batlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi jadal rivojlanib, yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati kuchayib bormoqda. Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda o‘qituvchilarning innovatsion faoliyati muhim ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyatni samarali baholash o‘qituvchilarning o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvlarini aniqlash, ularning kasbiy mahorati va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini baholash mezonlari, xalqaro tajribalar va samaradorlikni oshirish usullari ko‘rib chiqiladi.

Innovatsiya — bu yangilik yaratish, o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, yangi pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish jarayonidir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun innovatsion faoliyat quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: Interfaol metodlar — o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash — elektron darsliklar, multimedia resurslar, onlayn platformalar. Individual yondashuv — har bir o‘quvchining qobiliyatini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil qilish. Guruhli va loyihaviy ishlar — o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Masalan, Singapur ta’lim tizimida innovatsion faoliyatga alohida e’tibor qaratilib, o‘qituvchilar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil qilinadi.

Finlandiyada esa ta’lim jarayonida mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga urg‘u beriladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini samarali baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: Pedagogik samaradorlik – o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalarning shakllanish darajasi. Psixologik moslashuvchanlik – o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga moslashish darajasi. Kreativlik – o‘qituvchining yangi usullarni qo‘llash va moslashuvchan yondashuvlari.Texnologik bilim – raqamli vositalardan foydalanish mahorati. Tahlil qilish qobiliyati – o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish va o‘qituvchining o‘z faoliyatini baholash qobiliyati.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion ko‘nikmasini shakllantirishda xalqaro loyihalar va dasturlarga asoslanish ham kutilgan samarani beradi. Misol uchun, bunday xalqaro loyihalar va dasturlarning eng muhimlari quyidagilardan iborat: ERAZMUS – bu xalqaro dasturga muvofiq Yevropa Ittifoqiga kiruvchi barcha mamlakatlarning o‘qituvchilari yagona o‘quv dasturi asosida tayyorlanishi kerak. Biz uchun mazkur dasturning innovatsion texnologiyalar bo‘limi muhim ahamiyatga ega. LINGVA - mazkur xalqaro loyihaga ko‘ra, barcha shaxslar boshlang’ich sinfdan boshlab xorijiy tillarni o‘rganishgga kirishishi kerak. O‘zbekiston boshlang’ich ta’lim tizimida mazkur xalqaro loyiha qabul qilingan va shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilari bitta xorijiy tilni bilishi kerakligi taqozo etiladi. EVRIKA – bu xalqaro dasturga muvofiq SHarqiy Yevropa mamlakatlarining ta’lim tizimi muvofiqlashtirib boriladi. Biz uchun bu dasturning mintaqaviy ta’lim birligi bo‘limi muhimdir. ESPRIT – bu xalqaro loyiha Yevropa universitetlarida amal qilmoqda va u ta’lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqotlar muassasalari uchun yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug’ullanadi. Biz uchun mazkur xalqaro loyihaning yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini samarali baholash ta’lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion faoliyat o‘qituvchilardan yangicha pedagogik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyatni baholashda pedagogik samaradorlik, kreativlik, psixologik moslashuvchanlik, texnologik bilim va natijalarni tahlil qilish kabi mezonlar asosiy ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyevning innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari va qabul qilingan qonunlar ta’lim tizimida chuqur islohotlar olib borishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini tizimli ravishda baholash o‘quv jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimiz ta’lim tizimining xalqaro standartlarga mos rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidov U. "Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar". Toshkent: Sharq Noshriyoti, 2020.
2. Axmedov A. "Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi". Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.
3. Karimov B. "Pedagogik texnologiyalar va ta’lim sifati". Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
4. Vygotsky L. S. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Harvard University Press, 1978.
5. Hattie J. "Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning". Routledge, 2012.
6. Niemi H., Toom A., Kallioniemi A. "Miracle of Education: The Principles and Practices of Teaching and Learning in Finnish Schools". Springer, 2012.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi. "Boshlang‘ich ta’lim davlat standarti". Toshkent, 2021.
8. Dewey J. "Democracy and Education". Macmillan, 1916.